

**Xorazm viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI**

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho-lash
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Boshqarmaning Davlat xizmatlari ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish sho'basi va Huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va metodik ta'minlash sho'basi tomonidan 2023-2024-yillar davomida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga taqdimnomalar kiritishda belgilangan talablarga rioya etilganligini va taqdimnomalarning natijadorligini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha boshqarma boshlig'iga axborot-tahliliy ma'lumotnoma va taklif kiritish.	fevral-mart	A.Maxmudov, J.Abdukarimov	O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-oktabrdagi 254-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risidagi yo'riqnoma.	Boshqarma tarkibiy bo'linmalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish va oldini olish.	1
2. (6)	Adliya organlari va muassasalari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellari ishlab chiqarayotgan elektr energiyasini doimiy (onlayn) ravishda monitoring qilish uchun elektron tizim o'rnatish.	may	M.Jumaniyozov, I.Tairov	Adliya organlari va muassasalari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellaridan olinayotgan elektr energiyasi miqdorini nazoratini doimiy ravishda amalga oshirishda qiyinchiliklarni vujudga kelishi va ortiqcha vaqt talab qilinmoqda.	Quyosh panellaridan olinadigan elektr energiyasining doimiy monitoringni yo'lga qo'yish.	4
II. NORMA IJODKORLIGIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH, HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA						
3.	"E-qaror" elektron tizimi orqali mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan normativ tusdagi, yer munosabatlariga oid hamda yer uchastkalari olib qo'yilishi	yanvar-iyun	T.Eshmetov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunchilikka zid hujjatlarning qabul qilinishi holatlari, shuningdek "E-qaror" elektron tizimi orqali asossiz ravishda yopiq turdagi	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qaror (farmoyish)larni qabul qilishda qonuniylikni ta'minlash, qabul qilingan	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	bilan bog'liq va boshqa turdagi qaror (farmoyish)larning qonuniyligini hamda qabul qilingan hujjatlarni e'lon qilishning (ochiq va yopiq) asoslilikini monitoring qilish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish.			qarorlar qabul qilinishi, shuningdek, ayrim hollarda qonunchilikka ko'ra yopiq holda qabul qilinishi lozim bo'lgan qaror (farmoyish)larning ochiq holatda qabul qilish holatlari mavjud.	hujjatlarni e'lon qilishda asossiz ravishda yashirish yoki ochiq holatda e'lon qilish holatlarini bartaraf qilish.	
4.	Xorazm viloyatida 2024-yil davomida sodir etilgan jinoyatlar dinamikasini va ularni sodir etgan shaxslar toifasini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlari reja-grafigini tasdiqlash va ijroga qaratish.	fevral-mart	R.Ibragimov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali jinoyatchilikning oldini olish.	2

III. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA

5. (16)	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyati;	yanvar-fevral	T.Eshmetov, R.Sattarov, N.Babajanov, D.Masharipov, K.Atadjanov, L.Yusupov, R.Ibragimov	Amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar	Talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy baza takomillashtiriladi hamda o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish.	3
------------	--	---------------	--	--	---	---

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi.		
6.	Xorazm viloyati kesimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning mahalliy budjetga yuklamalarini, shuningdek, ularning sifatli bajarilishiga to'siq bo'layotgan boshqa omillarni tahlil qilish. Natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va takliflar tayyorlash va kiritish. Bunda, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning mahalliy budjetga yuklamalarini tizimlashtirilgan (yig'ma) tahlil qilishning raqamlashtirilgan yangi mexanizmlarini yaratishni inobatga olish.	yanvar-mart	R.Sattarov, D.Aminov	Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosi ta'minlanishida mablag' va moliyalashtirish bilan bog'liq to'siqlar yuzaga kelmoqda.	Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning mahalliy budjetga yuklamalarining tizimli hisobi yuritiladi; kelgusida qabul qilinishi rejalashtirilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar loyihalarini ularning mablag' bilan bog'liq holda ijrosi ta'minlanmasdan qolish ehtimoli baholab boriladi va shunday holatlar minimallashtiriladi.	2
7. (19)	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining huquqlari kafolatlarini oshirish maqsadida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Shuningdek, aksiya doirasida nogironligi va kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholining ehtiyojmand toifalarini tibbiy xizmatlardan foydalanishi holatlarini o'rganish.	fevral-mart	N.Babajanov, R.Ibragimov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmasligi kabi va boshqa holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	Aksiya natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanadi. Nogironligi yoki kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholi ehtiyojmand toifalarining tibbiy xizmatlardan foydalanishi, masalasida murojaatlar ortib bormoqda. Shuningdek, order berish jarayoni uzoq vaqt olayotganligi sababli fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.	qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	
8. (21)	O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	mart-aprel	T.Eshmetov, R.Sattarov, N.Babajanov, D.Masharipov, K.Atadjanov, L.Yusupov, R.Ibragimov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
9.	Maktablarda ta'til davrini optimallashtirish orqali energiya samaradorligi bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini yanada samaraliroq tashkil etish imkoniyatlarini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va takliflar tayyorlash va kiritish.	aprel-may	R.Sattarov, D.Aminov	Maktablarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun ko'p miqdorda budjet xarajatlarining sarflanishi.	Maktablarda ta'til davrini optimallashtirish orqali energiya samaradorligi va tejamkorligiga erishish.	2
10. (23)	Aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o'rganish orqali, har bir fuqaroga individual yondashuvni joriy etishga qaratilgan "Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish.	may	R.Ibragimov, N.Babajanov, M.Jumaniyozov, I.Tairov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	"Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish orqali muammolarni joyiga chiqqan holda o'rganib, har bir fuqaroga maksimal darajada individual yondashgan holda huquqiy maslahat berish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish zarur	Aholining huquqiy muammolarini maksimal darajada joylardagi mahallalarning o'zida hal etish. Fuqarolarga huquqiy tushuntirish berish orqali targ'ibotni amalga oshirish.	4
11. (25)	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyatini;	may-iyun	T.Eshmetov, R.Sattarov, N.Babajanov, D.Masharipov, K.Atadjanov, L.Yusupov, R.Ibragimov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
12. (27)	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	iyun	T.Eshmetov, R.Sattarov, N.Babajanov, D.Masharipov, K.Atadjanov, L.Yusupov, R.Ibragimov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Bojxona ma'muriyatchiligi va bojxona imtiyozlarini qo'llash bilan bog'liq ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda.	Bojxona ma'muriyatchiligi takomillashtirish va bojxona imtiyozlarini qo'llash bo'yicha yagona huquqni qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish.	3
13. (28)	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida	iyun	N.Babajanov, R.Ibragimov,	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlanmayotganligi va	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	“Xodimlarning mehnat huquqi kafolati” nomli “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish. Aksiya natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma‘lumotnoma kiritish.		tuman (shahar) adliya bo‘limlari	boshqa kamchiliklar bo‘yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta‘minlash yo‘nalishida “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta‘minlanadi.	ta‘minlash yo‘nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko‘mak ko‘rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	
14. (29)	Respublikada suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq topshiriqlar ijrosini tahlil qilish. Natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga tahliliy ma‘lumotnoma kiritish.	iyun	R.Sattarov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	“Ijro.gov.uz” tizimi orqali ayrim topshiriqlar ijrosi ta‘minlanmaganligi, mablag‘ yetishmovchiligi hamda mas’ul ijrochilarning bu borada ishlarni to‘g‘ri tashkil etmaganligi aniqlandi. Shu bois, ushbu sohani tahlil qilish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati mavjud.	Mazkur soha bo‘yicha hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tahliliy ma‘lumotnoma va takliflar tayyorlanadi.	3
IV. HUQUQIY XIZMAT VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA						
15. (31)	“Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar asosida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan talabnoma yuborish holatini kameral tekshirish orqali o‘rganish. Natijasi yuzasidan tahliliy ma‘lumot tayyorlash va tegishli choralar ko‘rish.	fevral	M.Yuldashev, I.Sadiqov	Notariuslar tomonidan “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilangan tartibda notarial harakatga oid ma‘lumotlarni vakolatli organga yuborilishi talablariga rioya qilinishi ahvolini tahlil qilish.	Notariuslar tomonidan notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o‘rganish.	3
16.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi	yanvar-iyun	M.Yuldashev I.Sadiqov	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 iyuldagi	Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	464-son qarori bilan tasdiqlangan "Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan oxirgi uch yil ichida ish faoliyati o'rganilmagan notariuslar faoliyatida rejali tekshirish o'tkazish. Natijalari bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va tegishli choralar ko'rish.			464-son qarori bilan tasdiqlangan "Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 12-bandi.	oshirishda qonuniylikni, aholiga sifatli notarial xizmatlarining ko'rsatilishini ta'minlash.	
17.	Tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali berilgan xulosalarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini, hujjat loyihalarini asossiz rad qilish va muddat buzilishi holatlarini aniqlash yuzasidan monitoring o'tkazish. Natijasi bo'yicha tizim faoliyatini va qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va tegishli choralar ko'rish.	yanvar-iyun	K.Atadjanov	Ayrim tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatida hujjatlar loyihalariga xulosalar berishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yish holatlari mavjud.	Davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash.	3
18.	Yuristlar malakasini oshirish markazi**** bilan hamkorlikda davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari yuridik xizmat xodimlarining malakasini oshirish.	yanvar-iyun	K.Atadjanov	Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrda 244-son qarori bilan tasdiqlangan Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizom.	Davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash.	4
19. (33)	O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston karlar jamiyati va O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyatining	mart-iyun	K.Matkarimov	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmaganligi sababli ushbu tadbir ish rejaga kiritilmoqda.	Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi,	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari faoliyatini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.				kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olishni ta'minlash.	
V. DAVLAT XIZMATLARI SOHASIDA						
20. (41)	Xorazm viloyati bo'yicha 2023-2024-yillar davomida tug'ilganlik faktini belgilash haqida ko'rilgan ishlar yuzasidan sud amaliyotini tahlil qilish. Natijasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 8-son qarori 14-bandida ekspertiza tayinlanmaydigan holatlarining aniq ro'yxatini belgilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Adliya vazirligiga kiritish.	yanvar-fevral	T.Bektemirov, D.Otaboyev	Sudlarda otalikni belgilash bo'yicha ishlarda turlicha amaliyot shakllangan. Masalan, ayrim holatlarda sudlar tomonidan odam DNKsi sudbiologik ekspertizasi tayinlanmasdan tug'ilganlik fakti belgilangan bo'lsa, xuddi shu kabi boshqa barcha holatlarda ekspertiza xulolasi asosida bunday faktlar belgilanmoqda. Vaholanki, qonunchilikda va Oliy sud Plenumi qarorlarida sudlar tomonidan otalikni belgilash yoki bolaning onadan tug'ilganlik faktlarini belgilash ishlarini ko'rib chiqishda odam DNKsi sudbiologik ekspertizasini tayinlash majburiyligi ko'rsatilmagan. Shunday bo'lsada, ko'plab holatlarda ekspertiza tayinlanmoqda.	Tug'ilishi qayd etilmagan bolalalarning tug'ilishini qayd etish choralari ko'rish.	2
21.	2024-yil davomida tuman (shahar) FHDY bo'limlari xodimlari tomonidan shaxsning familiyasi, ismi va ota ismini o'zgartirish harakatlarini qayd qilishning qonuniyligi ahvolini o'rganish. Natijasi bo'yicha boshqarma rahbariyatiga axborot va qonunchilik (tizim)ni takomillashtirish bo'yicha taklif kiritish.	yanvar-mart	T.Bektemirov, D.Otaboyev	Shaxslarning familiyasi, ismi va ota ismini o'zgartirish harakatlarini qayd qilishda belgilangan talablarga rioya etilganligini, shu jumladan talab qilinadigan tegishli va talab qilinmagan hujjatlar olinganligi va mavjudligini ko'rib chiqish.	Shaxslarning familiyasi, ismi va ota ismini o'zgartirish harakatlarini qayd qilishda qonuniylilikni ta'minlash, shuningdek, fuqarolar tomonidan ortiqcha vaqt va mablag' sarflanishining oldini olish.	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
22.	Qoraqalpog'iston Respublikasining olis hududlarida joylashgan davlat xizmatlari markazlari xodimlari bilan tajriba almashish maqsadida davra suhbatlari o'tkazish.	yanvar-mart	T.Bektemirov, D.Otaboyev	Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida tajriba almashish.	Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishda ijobiy tajribalarni o'rganish va faoliyatga tadbqiq etish.	4
23.	2024-yil davomida tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari xodimlari tomonidan ariza (so'rovnoma) noto'g'ri yuborilishi natijasida vakolatli organlar tomonidan davlat xizmati ko'rsatish asosli ravishda rad qilingan holatlarni o'rganish. Natijasi bo'yicha boshqarma rahbariyatiga axborot kiritish.	aprel-iyun	T.Bektemirov, D.Otaboyev	Davlat xizmatlari markazlari xodimlari tomonidan ariza (so'rovnoma)lar noto'g'ri yuborilganligi natijasida vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatini ko'rsatish asosli ravishda rad qilinishi holatlari ortib bormoqda.	Davlat xizmatlari markazlari xodimlari tomonidan ariza (so'rovnoma)larni to'g'ri yuborilishini ta'minlash va vakolatli organlar tomonidan rad qilinishining oldini olish.	3
VI. RAQAMLASHTIRISH SOHASIDA						
24.	Gruziya va Azarbayjon davlatlarining aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha boshqarma boshlig'iga taklif kiritish.	aprel-iyun	N.Raxmanov, F.Polvannazarov	Davlat xizmatlari sohasida rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribasini joriy etish.	Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish.	2
VII. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
25.	Xorazm viloyatining o'ziga xos bo'lgan geografik ko'rsatkichlari, ya'ni "Hazorasp olmasi", "Yangiariq noki" va "Xorazm guruchi"ni geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatdan o'tkazish choralarini ko'rish.	yanvar-iyun	L.Yusupov	Xorazm viloyatining o'ziga xos geografik ko'rsatkichlari ro'yxatdan o'tkazilmagan.	Viloyatning o'ziga xos geografik ko'rsatkichlarining huquqiy maqomi belgilanadi va muhofaza qilinadi.	4
26. (55)	Viloyat hududida joylashgan yirik savdo majmualarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning kontrafaktlik darajasini o'rganish hamda ushbu hududlarni kontrafaktsiz hududga	aprel	L.Yusupov	Respublikamizdagi yirik savdo majmualarida ayrim tovarlarning kontrafakt nusxalari uchramoqda. Shunga ko'ra, yirik savdo obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazish orqali ularni "Kontrafaktsiz	Yirik savdo majmualarini kontfaktsiz hududga aylantirish.	3

T/r.	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	aylantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.			hudud"ga aylantirish bo'yicha amaliy yordam beriladi.		
27. (57)	Hunarmandchilik buyumlarining dizaynini intellektual mulk obyekti sifatida ro'yxatga olish, baholash, sug'urtalash, tashkilot balansida aks ettirish va uni sotish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish istiqbollarini o'rganish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	may	L.Yusupov	Hunarmandlar tomonidan o'z buyumlarini intellektual mulk sifatida muhofaza qilish sustligi hamda savdo nuqtalarida hunarmandchilik buyumlari faqat suvenir sifatida past baholarda sotilayotganligi aniqlandi.	Ro'yxatdan o'tkazilgan hunarmandchilik buyumlari sonini oshirish va bunday buyumlarni qo'shimcha qiymat bilan sotish imkoniyatini yaratish.	2

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar Adliya vazirligining mavjud resurslari, moliyaviy mablag'lari va moddiy-texnik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.

*** "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi bilan kelishilgan holda.

*** Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan kelishilgan holda.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil
I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasiga ilova

Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo'nalishlari va mezonlari jadvali

Yo'nalish raqami	Baholanayotgan yo'nalish nomi	Yo'nalishning baholash mezonlari	Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar	Mezon bo'yicha maksimal bali	Yo'nalish bali
1.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tahlil qilish	Faoliyati baholanganligi	<i>Adliya organlari soni bilan baholangan adliya organlar soni</i>	50	100
		Tizimli tahlil amalga oshirilganligi	<i>tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
2.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma'lumot va boshqa takliflar	Taklifning asoslanganligi	<i>loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari</i>	25	100
		Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi</i>	25	
		Taklif bo'yicha asoslantirishda taklif amaliyotga kiritilgandan so'ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija (foiz, miqdor va boshqalarda) nazarda tutilganligi</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
3.	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o'rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta'sir choralari ko'rish	O'rganish qamrovi	<i>savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo'yicha asoslar soni</i>	20	100
		Qonunbuzilishning asoslanganligi	<i>qonunbuzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni</i>	20	
		Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi	<i>bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni</i>	20	
		Javobgarlik choralari qo'llanilishi	<i>Javobgarlik tortilishi lozim bo'lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni</i>	20	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	20	
4.	Ko'rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi	Ko'rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi	<i>Normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko'rsatkichlar bilan bajarilgan ko'rsatkichlar miqdori</i>	75	100
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	